ADVOKATNING PROFESSIONAL JAVOBGARLIGINI SUG‘URTALASH INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Aliyeva Farangiz Rashidjon qizi,
“In-sof law” advokatlik byurosi advokati
E-mail: farangizaliyeva1402@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada advokatlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan professional xavflar, advokat tomonidan ishonch bildiruvchiga yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy mexanizmlari hamda advokatning professional javobgarligini sug‘urtalash institutini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Advokatning professional javobgarligini sug‘urtalashning huquqiy tabiati, uning advokat, ishonch bildiruvchi shaxs va sug‘urta tashkiloti o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘rni, sug‘urta hodisasini aniqlash mezonlari hamda sug‘urta qoplamasining huquqiy chegaralari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlarda advokatlarning professional javobgarligini sug‘urtalash amaliyoti tahlil qilinib, mazkur institutni O‘zbekiston Respublikasining advokatura tizimida rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy yo‘nalishlari yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Tayanch so‘zlar: advokat, advokatura, professional javobgarlik, professional xato, sug‘urta, professional javobgarlik sug‘urtasi, sug‘urta hodisasi, sug‘urta qoplamasi, ishonch bildiruvchi huquqlari, advokatlik faoliyati.

СТРАХОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ АДВОКАТА

Аннотация: В данной статье анализируются профессиональные риски, которые могут возникать в процессе осуществления адвокатской деятельности, правовые механизмы возмещения вреда, причинённого адвокатом клиенту, а также вопросы совершенствования института страхования профессиональной

ответственности адвоката. Рассматриваются правовая природа страхования профессиональной ответственности адвоката, его роль в отношениях между адвокатом, доверителем и страховой организацией, критерии определения страхового случая, а также правовые пределы страхового покрытия. Кроме того, анализируется практика страхования профессиональной ответственности адвокатов в зарубежных государствах и разрабатываются предложения по совершенствованию организационно-правовых направлений развития данного института в системе адвокатуры Республики Узбекистан.

Ключевые слова: адвокат, адвокатура, профессиональная ответственность, профессиональная ошибка, страхование, страхование профессиональной ответственности, страховой случай, страховое покрытие, права доверителя, адвокатская деятельность.

PROFESSIONAL LIABILITY INSURANCE FOR LAWYERS

Abstract: This article analyzes the professional risks that may arise in the course of legal practice, the legal mechanisms for compensating damage caused to a client by a lawyer, and issues related to improving the institution of professional liability insurance for lawyers. The article examines the legal nature of professional liability insurance, its role in the relations between a lawyer, a client and an insurance organization, the criteria for determining an insured event, and the legal limits of insurance coverage. In addition, the practice of professional liability insurance for lawyers in foreign countries is analyzed, and proposals are developed for improving the organizational and legal directions for the development of this institution within the advocacy system of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: lawyer, advocacy, professional liability, professional error, insurance, professional liability insurance, insured event, insurance coverage, client rights, legal practice.

Advokatura instituti fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim huquqiy institutlardan biri hisoblanadi. Advokat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish jarayonida uning zimmasiga nafaqat qonunchilik talablariga va kasb etikasi qoidalariga rioya qilish, balki ishonch bildiruvchi shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish majburiyati ham yuklatiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunida advokatning professional faoliyatida amaldagi qonunchilik, advokat kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya qilishi, shuningdek yuridik yordam so‘rab murojaat qilgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vosita va usullaridan foydalanishi shartligi belgilangan1.

Shu bilan birga, advokatlik faoliyati o‘zining professional xususiyatidan kelib chiqib, muayyan huquqiy va moliyaviy xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Xususan, advokat tomonidan professional majburiyatlarning lozim darajada bajarilmasligi, protsessual yoki boshqa huquqiy muddatlarning o‘tkazib yuborilishi, zarur huquqiy harakatlarning amalga oshirilmasligi yoxud professional faoliyat jarayonida boshqa xatolarga yo‘l qo‘yilishi natijasida ishonch bildiruvchi shaxsga zarar yetishi ehtimoli mavjud.

Mazkur holatda advokatning javobgarligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda advokatning intizomiy javobgarligi bilan uning professional faoliyati natijasida yetkazilgan zararni qoplash bilan bog‘liq javobgarligini farqlash lozim. **Intizomiy javobgarlik**, avvalo, advokatning kasbiy qoidalar va majburiyatlarni buzganligi uchun qo‘llaniladigan ta’sir choralariga taalluqli bo‘lsa, professional javobgarlik advokatning professional faoliyati natijasida ishonch bildiruvchiga yetkazilgan zararni qoplash masalasini ham qamrab olishi mumkin. Shu sababli mazkur ikki institutni bir xil huquqiy mexanizm sifatida talqin qilish advokatlik faoliyatidagi javobgarlik tizimining mazmunini to‘liq ochib bermaydi.

1 O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni

O‘zbekiston qonunchiligida advokatning kasbiy faoliyatini amalga oshirishdagi mustaqilligi va uning huquqiy himoyasi alohida kafolatlangan. Jumladan, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunda advokatni yuridik va jismoniy shaxslarga qonunga muvofiq yuridik yordam ko‘rsatganligi munosabati bilan jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikka tortish bilan tahdid qilish mumkin emasligi belgilangan[2].

Biroq mazkur kafolat advokatning qonuniy asoslarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan professional javobgarligini butunlay istisno etmaydi. Aksincha, advokatning professional faoliyati natijasida ishonch bildiruvchi shaxsga real zarar yetkazilgan hollarda ushbu zararni qoplashning samarali va barqaror mexanizmlarini shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Aynan shu nuqtada **advokatning professional javobgarligini sug‘urtalash instituti** alohida huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Professional javobgarlikni sug‘urtalashning asosiy vazifalaridan biri advokatning professional faoliyati bilan bog‘liq moliyaviy xavflarni sug‘urtalovchi zimmasiga muayyan shartlar asosida o‘tkazish hamda sug‘urta hodisasi yuz bergan taqdirda yetkazilgan zararni qoplash uchun moliyaviy mexanizm yaratishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bunday mexanizm, bir tomondan, ishonch bildiruvchi shaxsning buzilgan mulkiy manfaatlarini tiklashga, ikkinchi tomondan esa advokatning professional faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy tavakkalchiligini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu jihatdan, advokatning professional javobgarligini sug‘urtalash masalasini faqat sug‘urta munosabatlari doirasida emas, balki **advokat - ishonch bildiruvchi shaxs - sug‘urtalovchi** o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy munosabatlarning alohida modeli sifatida tadqiq etish muhimdir. Bunda sug‘urta hodisasi sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan professional xatoning mezonlari, yetkazilgan zararning mavjudligi, advokatning harakati yoki harakatsizligi bilan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik,

2 “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 6-modda.

sug‘urta qoplamasining chegaralari va sug‘urta tovonini talab qilish tartibi kabi masalalar alohida huquqiy tahlilni talab qiladi.

Shuningdek, O‘zbekistonning sug‘urta qonunchiligida majburiy sug‘urta mexanizmlarining alohida turlari shakllanganligi mazkur institutni advokatlik faoliyatiga nisbatan qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq etish uchun huquqiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, qonunchilikda ayrim professional yoki faoliyat bilan bog‘liq fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash modellari mavjud.

Shundan kelib chiqib, advokatning professional javobgarligini sug‘urtalash institutini O‘zbekiston advokatura tizimida joriy etish yoki rivojlantirishning maqbul huquqiy modelini aniqlash, uning majburiy yoki ixtiyoriy shaklini belgilash, sug‘urta qoplamasining minimal miqdorini aniqlash, sug‘urta hodisasini belgilash mezonlarini ishlab chiqish hamda ishonch bildiruvchi shaxsning sug‘urta tovonini olish imkoniyatlarini kafolatlash masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Amerikalik huquqshunos **George M. Cohen** [3] professional javobgarlik sug‘urtasini nafaqat advokatni ehtimoliy moliyaviy zararlardan himoya qiluvchi mexanizm, balki advokatlarning xatti-harakatlarini oldini olish va professional faoliyat sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi institutsional vosita sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, professional javobgarlik sug‘urtasi *“loss prevention”* funksiyasini bajarishi, ya’ni zarar yuzaga kelgandan keyin uni qoplash bilan cheklanmay, sug‘urtalangan advokatlarning professional xatti-harakatlarini yaxshilashga ham xizmat qilishi mumkin.

V. Zaborovskiy aynan majburiy yoki ixtiyoriy sug‘urta masalasini tahlil qiladi va advokatlarning professional javobgarligini sug‘urtalashni qonunchilikda mustahkamlash masalasini asoslaydi[4].

---

3 Cohen G.M. Legal Malpractice Insurance and Loss Prevention: A Comparative Analysis of Economic Institutions. Connecticut Insurance Law Journal. 1997. Vol. 4. P. 305–351

4 Zaborovskyi V.V. Shchodo dotsilnosti zaprovadzhennia oboviazkoho strakhuvannia tsyvilno-pravovoi vidpovidalnosti advokata. Naukovyi visnyk Uzhhorodskoho natsionalnoho universytetu. Seriia: Pravo. 2022

Germaniya Federal advokatlar to‘g‘risidagi qonunining (Bundesrechtsanwaltsordnung - BRAO) 51-paragrafiga muvofiq, advokat o‘zining professional faoliyatidan kelib chiqadigan mulkiy zararlar bo‘yicha javobgarlik xavflarini qoplaydigan professional javobgarlik sug‘urtasini tuzishi va uni advokatlik faoliyati davomida saqlab turishi shart[5].

Germaniya modelining muhim jihatlaridan biri shundaki, sug‘urta shartnomasi advokatning har bir professional majburiyatni buzishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xususiy-huquqiy zararlarni qamrab olishi lozim. Shu bilan birga, qonunchilikda qasddan sodir etilgan majburiyat buzilishi kabi ayrim holatlarni sug‘urta qoplamasidan chiqarish imkoniyati nazarda tutilgan.

Amaldagi tartibga ko‘ra, oddiy advokat uchun har bir sug‘urta hodisasi bo‘yicha minimal sug‘urta summasi **250 000 yevro**ni tashkil etadi. Shuningdek, sug‘urta tashkiloti tegishli Advokatlar palatasini sug‘urta shartnomasining tuzilishi, bekor qilinishi yoki majburiy qoplamaga ta’sir qiluvchi o‘zgarishlar haqida xabardor qilishi kerak. Advokatdan zarar undirishni ko‘zlayotgan uchinchi shaxs esa tegishli Advokatlar palatasidan advokatning sug‘urtalovchisi va sug‘urta polisi raqami to‘g‘risida ma’lumot olish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari, Germaniyada advokatlik faoliyatini amalga oshiruvchi ayrim yuridik shaxslar uchun sug‘urta summasi advokatning individual faoliyatidan farqli ravishda belgilanadi. Masalan, ayrim shakldagi advokatlik jamiyatlari uchun minimal sug‘urta summasi **500 000 yevrodan 2,5 million yevrogacha** etib belgilangan.

Bu holat Germaniya qonunchiligida professional javobgarlik sug‘urtasi faqat advokatni moliyaviy xavfdan himoya qiluvchi vosita emas, balki ishonch bildiruvchining zararini qoplashga xizmat qiluvchi institutsional kafolat sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

---

5 Bundesrechtsanwaltsordnung (BRAO), § 51 Abs. 1 — Berufshaftpflichtversicherung https://www.gesetze-im-internet.de/brao/__51.

Fransiyada ham advokatlarning professional fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash instituti shakllangan. Fransiya Advokatlar milliy kengashi (Conseil national des barreaux - CNB) materiallarida advokatning professional faoliyati davomida yo‘l qo‘yilgan xato, e’tiborsizlik yoki kamchiliklar natijasida yuzaga keladigan javobgarlik professional sug‘urta mexanizmi bilan bog‘langan6.

Fransiya tajribasi bizning tadqiqotimiz uchun ayniqsa qiziqarli bo‘lgan jihat- advokatning protsessual xatosi natijasida ishonch bildiruvchining muayyan huquqiy imkoniyatdan mahrum bo‘lishi masalasidir. Masalan, protsessual muddatning o‘tkazib yuborilishi yoki zarur protsessual harakatning bajarilmasligi ishonch bildiruvchi uchun zararli oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda faqat bevosita moddiy zararni emas, balki yo‘qotilgan huquqiy imkoniyatning qiymatini aniqlash masalasi ham yuzaga keladi.

Bu masala O‘zbekiston uchun ham alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki advokatning professional xatosi oqibatida ishonch bildiruvchining muayyan huquqdan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo‘lishi holatlari uchun sug‘urta qoplamasining chegaralarini belgilash kelgusida alohida huquqiy mexanizmni talab qilishi mumkin.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, advokatning professional javobgarligini sug‘urtalashning asosiy maqsadi advokatni kasbiy majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish emas, balki professional faoliyat natijasida ishonch bildiruvchiga yetkazilgan zararni qoplashning qo‘shimcha va barqaror moliyaviy mexanizmini yaratishdan iborat. Xususan, Germaniyada advokat professional javobgarlik sug‘urtasini tuzishi va uni advokatlik faoliyati davomida saqlashi shart.

Mazkur tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida ham advokatning professional javobgarligini sug‘urtalashni bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

6 Conseil national des barreaux (CNB), professional regulations and information concerning lawyers' professional liability insurance.

Biroq xorijiy modelni to‘liq va mexanik tarzda ko‘chirish maqsadga muvofiq emas. O‘zbekiston advokaturasining tashkiliy tuzilishi, advokatlik faoliyatini amalga oshirish shakllari, sug‘urta bozori va advokat-ishonch bildiruvchi munosabatlarining huquqiy xususiyatlaridan kelib chiqib, milliy sharoitga moslashtirilgan model ishlab chiqilishi lozim.

Birinchi navbatda, advokatning professional javobgarligini sug‘urtalashni advokatlik faoliyatini amalga oshirishning majburiy shartlaridan biri sifatida belgilash masalasini ko‘rib chiqish mumkin.

Bunda “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunga advokatning professional javobgarligini sug‘urtalashga oid alohida norma kiritilib, advokat yoki advokatlik tuzilmasi professional javobgarlik sug‘urtasi shartnomasiga ega bo‘lmagan holda professional faoliyatni amalga oshira olmasligi nazarda tutilishi mumkin.

Bunday yondashuv Germaniya tajribasiga yaqin bo‘lib, u yerda professional javobgarlik sug‘urtasi advokatning advokatlik maqomini saqlab turishi bilan bog‘langan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda ushbu talabni birdaniga barcha advokatlarga tatbiq etish o‘rniga, uni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

Masalan:

birinchi bosqichda-ixtiyoriy sug‘urtalashni rag‘batlantirish;

ikkinchi bosqichda-advokatlik tuzilmalari uchun minimal sug‘urta talablarini belgilash;

uchinchi bosqichda-professional javobgarlik sug‘urtasini advokatlik faoliyatining majburiy shartiga aylantirish.

Bu mexanizm sug‘urta bozoriga ham, advokatlarning o‘ziga ham yangi institutga moslashish imkonini beradi.

Taklif qilinayotgan institutning eng muhim elementlaridan biri **“sug‘urta hodisasi”** tushunchasini qonunchilik darajasida aniqlashtirishdir.

Bizningcha, sug‘urta hodisasi sifatida advokatning professional faoliyati davomida:

professional majburiyatni lozim darajada bajarmasligi;

professional xatoga yo‘l qo‘yishi;

zarur protsessual harakatni o‘z vaqtida bajarmasligi;

qonunchilikda belgilangan protsessual muddatni advokatning aybi bilan o‘tkazib yuborishi;

ishonch bildiruvchiga tegishli hujjatlarni ehtiyotsizlik bilan yo‘qotishi yoki buzishi;

professional faoliyat natijasida ishonch bildiruvchining mulkiy manfaatlariga zarar yetkazishi natijasida sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan zarar yuzaga kelishi bilan bog‘liq holatlar kiritilishi mumkin.

Biroq advokat tomonidan qasddan sodir etilgan harakatlar sug‘urta qoplamasidan chiqarilishi lozim. Germaniya qonunchiligida ham professional javobgarlik sug‘urtasi har bir professional majburiyat buzilishidan kelib chiqadigan xususiy-huquqiy talablarni qamrab olishi bilan birga, sug‘urta qoplamasining qonuniy chegaralari mavjud.

Taklif etilayotgan institutning eng muhim jihati - sug‘urta advokatning o‘zini emas, avvalo ishonch bildiruvchining buzilgan mulkiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilishidir.

Shu sababli ishonch bildiruvchi shaxsga advokatning professional javobgarligi sug‘urtalanganligi haqida ma’lumot olish imkoniyatini berish lozim.

Mazkur mexanizmning joriy etilishi natijasida, avvalo, advokatlik xizmatidan foydalanuvchilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishning qo‘shimcha kafolati yaratiladi.

Ikkinchidan, advokatning professional faoliyati bilan bog‘liq moliyaviy risklar tizimli ravishda boshqariladi.

Uchinchidan, professional xatolarni aniqlash va ularning oqibatlarini baholash bo‘yicha yagona huquqiy yondashuv shakllanishiga zamin yaratiladi.

To‘rtinchidan, advokatlik faoliyatining professional standartlari oshadi. Chunki sug‘urta tashkilotlari ham o‘z navbatida sug‘urta xavfini baholash jarayonida advokatlik faoliyatining sifati, risklari va ichki nazorat mexanizmlariga e’tibor qaratishi mumkin.

Beshinchidan, advokatlik faoliyatiga nisbatan fuqarolarning ishonchi oshishiga xizmat qiluvchi qo‘shimcha institutsional kafolat shakllanadi.

Eng muhimi, professional javobgarlik sug‘urtasi intizomiy javobgarlikning o‘rnini bosmaydi. U advokatni jazolash vositasi emas, balki professional faoliyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash mexanizmi sifatida faoliyat yuritishi kerak.

Xulosa

Advokatning professional faoliyati yuqori darajadagi kasbiy bilim va mas’uliyatni talab qilishi bilan bir qatorda, professional xato va buning natijasida ishonch bildiruvchiga zarar yetkazish xavfini ham yuzaga keltiradi. Mazkur xavfni faqat intizomiy javobgarlik yoki umumiy fuqarolik-huquqiy javobgarlik vositalari orqali bartaraf etish yetarli emas.

Germaniya professional javobgarlik sug‘urtasini advokatlik faoliyatining muhim kafolatlaridan biri sifatida shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Germaniyada sug‘urta advokatlik faoliyatini amalga oshirishning majburiy elementi sifatida belgilangan bo‘lsa, Angliya va Uelsda sug‘urta qoplamasi ishonch bildiruvchi manfaatlarini ham bevosita himoya qiluvchi mexanizm sifatida qurilgan.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida advokatning professional javobgarligini sug‘urtalash institutini bosqichma-bosqich joriy etish, dastlab uning huquqiy asoslarini shakllantirish, keyinchalik minimal sug‘urta summasi, sug‘urta hodisasi va professional xato mezonlarini belgilash hamda kelgusida sug‘urtalashni advokatlik faoliyatining majburiy shartiga aylantirish maqsadga muvofiq.

Bizningcha, mazkur institutning eng maqbul modeli professional javobgarlik sug‘urtasi advokatning kasbiy mustaqilligini cheklovchi mexanizmga emas, aksincha, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi, professional risklarni taqsimlovchi va yetkazilgan zararni qoplashning samarali moliyaviy kafolatini yaratuvchi huquqiy institutga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni
2. “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 6-modda
3. Cohen G.M. Legal Malpractice Insurance and Loss Prevention: A Comparative Analysis of Economic Institutions. Connecticut Insurance Law Journal. 1997. Vol. 4. P. 305–351
4. Zaborovskyi V.V. Shchodo dotsilnosti zaprovadzhennia oboviazkoho strakhuvannia tsyvilno-pravovoi vidpovidalnosti advokata. Naukovyi visnyk Uzhhorodskoho natsionalnoho universytetu. Seriia: Pravo. 2022.
5. Bundesrechtsanwaltsordnung (BRAO), § 51 Abs. 1 — Berufshaftpflichtversicherung https://www.gesetze-im-internet.de/brao/__51.
6. Conseil national des barreaux (CNB), professional regulations and information concerning lawyers' professional liability insurance.